



**KICHIK MAKTAB YOSHIDA MAKTABGA ADAPTATSIYANING IJTIMOIY-  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

***Nasimov Sadriddin Xurazboyevich***

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*E-mail:sadriddin nasimov1981 @gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni matabga adaptasiyasini psixologik-pedagogik o‘rganishning shakillari, yo‘llari, uslublari samaradorligi va vositalari imkoniyatlarini tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Adaptatsiya, motivatsiya, ijtimoiy, psixologik, emotsiyal-irodaviy, qobiliyat, emotsiyal komponent, adekvat.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ШКОЛЬНОЙ  
АДАПТАЦИИ В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ**

**Аннотация.** В статье анализируются возможности форм, методов, способов, эффективности и инструментария психолого-педагогического изучения адаптации детей младшего школьного возраста к школе.

**Ключевые слова.** Адаптация, мотивация, социальная, психологическая, эмоционально-волевая, способность, эмоциональный компонент, адекватная.

**SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF ADAPTATION TO SCHOOL IN  
CHILDREN OF EARLY SCHOOL AGE**

**Annotation.** This article analyzes the possibilities of forms, ways, methods, effectiveness and tools of psychological and pedagogical study of adaptation of children of early school age to school.

**Keywords.** Adaptation, motivation, social, psychological, emotional-volitional, ability, emotional component, adequate.

**Kirish.** Fuqarolarning sog‘ligini saqlash va har tamonlama rivojlanishi har qanday davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda ko‘pchillik mutahasislar mamlakatning aksariyat aholisi sog‘ligi va intelektual rivojlanishi susayotganligini ta’kidlashmoqda. Bir tamondan, mazkur holatning sababi, boshqa tamondan, oqibati sifatida ko‘pincha adaptatsiya jarayonining buzilishi ko‘rsatilmoqda.

Tashqi muhitning o‘zgaruvchan sharoitga organizmning moslashishini taminlovchi, shuningdek, faoliyat va garmonik adaptatsion zahiraning susayishi katta shaxslarda ham kichiklarda ham kuzatiladi. Ko‘plab tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 15-40 % ida adaptatsiya buzilishi kuzatilmoqda va bu miqdorning oshishi ehtimoli ham mavjud.

Shaxsning adaptatsion imkoniyatini belgilovchi xususiyat va qobiliyatlarni rivojlantirish, shuningdek, zarur moslashish mexanizmlari va o‘z-o‘zini rivojlantirish, ularni ongli va erkin qo‘llash orqali adaptatsiya holatiga erishiladi.

Ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaning muvaffaqiyatlilagini belgilovchi xususiyat va qibiliyatlarning rivojlanish xususiyatlari ontogenezning turli bosqichlarida katta ahamiyatga egadir. Bunda kichik maktab yoshi jiddiy ahamiyatga molikdir, chunki 7-10 yoshlarda adaptatsiya buzilishining namayon bo‘lishi engil hisoblanadi, biroq uning oqibatlari shaxs rivojlanishida chuqur iz qoldiradi. Shuning uchun biz yuqorida izohlangan dolzarb g‘oyalardan kelib chiqqan holda, kichik maktab yoshidagi bolalarni maktabga adaptasiyasining o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini quydagicha tadqiq ettik.

**Adabiyotlar tahlili.** Biz muammoga doir ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganib, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilib, shu narsani angladikki, hozirgi paytda uzlusiz ta’lim tizmiga e’tibor va talab tobora oshib borayotganligi muammoning yana bir karra ahamiyatini oshiradi. Ushbu muammoning psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish eng muhim mavzulardan bo‘lib, yosh avlodni istalgan talab darajasida kamolga yetkazish vazifasi turadi. Shuning uchun bu muammoga oid ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, muammo doirasida pedagog, psixolog olimlar tamonidan ma’lum izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptasiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari etarlicha o‘rganilmagan. [1].

Ayniqsa, bu borada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ayni shu muammoning maqsadga muvofiq ijobiy hal etilishi ko‘p jihatdan bolalarni kelgusida maktab ta’limini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bolalarni maktabga motivatsion tayyorlash muammosi ko‘p qirrali bo‘lib, u bola hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi turkum vazifalarni o‘z ichiga oladi. Shu bois, yosh avlodni maktabga psixologik, motivatsion va jismoniy tayyorlash muammosi asrlar davomida keng jamoatchilikning diqqat markazida bo‘lib kelgan va hozirgi kunga qadar bu borada boy nazariy va amaliy tajribalar to‘plangani diqqatga sazovordir.

**Tahlil va natijalar.** Bola tarbiyasi borasidagi an‘analar o‘zbek klassik adabiyoti va tarixiy manbalarimizda o‘z aksini topgan. Jumladan, tabobat ilmining dahosi, faylasuf-olim Abu Ali ibn Sinoning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari uning deyarli barcha asarlarida o‘z ifodasini topgan. Xususan, bolaga ta’lim berishni erta boshlash borasida ham Ibn Sino aytgan fikrlariga oid ko‘plab rivoyatlar xalqimiz orasida avloddan-avlodga o‘tib, bugun ham keng ommada o‘qitish va tarbiyalashga individual yondashish, bolaning individual imkoniyatlari, aqliy qobiliyatini inobatga olishligini ta’kidlab: “Har bir odamning moyilligi va qobiliyatidan kelib

chiqqan holda o‘qitish kerak, aks holda ta’lim va tarbiya kutilgan natijani bermaydi”, deb ta’kidlaydi. [5; 304-b]

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab xorijda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash muammosini ilmiy-nazariy tadqiq etishga bo‘lgan e’tibor yanada kuchayadi. Ularda bolaning maktab ta’limiga etuklik masalalari bo‘yicha boy nazariy va amaliy tajribalar va turli talqindagi manbaalar to‘plangan.

19 asr oxiri va 20 asr boshlarida G‘arbiy evropa mamlakatlari va AQShda inson psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq tajribalarga asoslangan qator ilmiy nazariya va yo‘nalishlar maydonga keldi. Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilishiga qaramay, bu nazariyalar ma’lum darajada psixologiya ilmining rivojlanishiga munosib ulushini qo‘sishdi. Bu borada e.Meerman, S.Xoll, K.Byuler, e.Klapared, P.Jane, J.Piaje, A.Vallon, D.Bruner va boshqa qator olimlarning ilmiy tadqiqot va tajribalari fanda munosib o‘rin egallaydi.

Olmon psixologi E.Meerman bolaning maktab davrida uning ruhi va tanasida kechayotgan o‘zgarishlarni to‘liq bilmay turib, unga buyruq yoki taz’yiq o‘tkazib bo‘lmaydi, deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, eksperimental pedagogika fanning maqsadi ayni shu muammolarga qaratilishi lozim.

L.A.Venger va V.S.Muxinalarning fikricha, maktabga psixologik tayyorlik -bu maktabgacha yosh davrdagi psixologik rivojlanishning muhim natijalaridan biridir. Bolaning maktabga borishi uning hayotida keskin o‘zgarishlar yasaydi. Bu o‘zgarish yangi turmush tarzi va ijtimoiy faoliyat jamiyatda o‘z mavqeiga ‘ga bo‘lishi, kattalar va tengdoshlari orasida yangi munosabatlar tizimini yaratishga qaratilgan. O‘quvchining yangi ijtimoiy faoliyati ta’limning majburiyligi, jamiyat uchun kerakli faoliyat turi bilan shug‘ullanishi, yangi ijtimoiy hayotni o‘zlashtirishi va shu singarilardir. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yangi munosabatlar tizimi vujudga keladi. O‘qituvchi endi o‘quvchining ko‘z oldida oddiy kishi emas, balki jamiyat talablarini ado etuvchi, muayayn bilim va tajribalarni yosh avlodga etkazuvchi shaxs sifatida gavdalanadi. [2,3].

Bizning fikrimizcha kichik maktab yoshidagi bolalarning adaptatsion qobiliyatlar darajasi o‘qituvchilarining adaptatsion qobiliyati rivojlanganligi bilan bog‘liq jihatlari tahlil etilishi kerak. Mazkur fakt, kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi muvaffaqiyatlilagini belgilab beruvchi intelektual va shaxsiy xususiyatlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarini psixologik tanlovdan o‘tkazish zaruriyatidan dalolat beradi.

Ko‘plab tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha bolaning maktabga tayyorgarligi masalasi har doim dolzarb hisoblangan. Bu masalaning dolzarbliги ko‘p omillarga bog‘liq. Zamonaviy tadqiqotlar natijalariga binoan 30-40% bolalar o‘qishga tayyor bo‘lmashdan maktabga boradilar, ya’ni ularda tayyorgarlikning quyidagi komponentlari to‘liq shakllanmagan: ijtimoiy, psixologik, emotsiyonal-irodaviy.

Uzoq muddatli tizimli mashg‘ulotlar harakat faolligining kamayishi, sezilarli darajada statik zo‘riqishlar bola organizmida o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, “maktab shoki”, “maktab stressi”, “adaptatsion kasallik” haqida fikr yuritishga imkoniyat tug‘diradi.

Bolalar turli ravishda maktabga o‘rganadilar. Ba’zi birlari birinchi chorakning o‘zidayoq adaptatsiyalanadi, boshqalariga esa adaptatsiya uchun uzoqroq vaqt kerak bo‘ladi. Bolaning mакtabga tayyorligi uning fiziologik, ijtimoiy va ruhiy rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Maktabga tayyorlik tushunchasini olimlar turlicha ta’riflaydi: A.N. Leontev (1936): “Maktabga taylorlikning asosiy aspekti - bolalarda o‘z hulqini boshqara olishi”; A. Anastazi (1957): "Bilim, ko‘nikma, motivatsiyalarga ega bo‘lish"; L.I.Bojovich (1982): “Fikrlash faoliyati, bilishga qiziqish rivojlanganligining, o‘z bilish faoliyatini boshqara olish ma’lum darajasi va o‘quvchining ijtimoiy pozitsiyasi”; I. Shvansara (1987): “Bola shu darajagacha rivojlanganki, u o‘qish jarayonida ishtirok etish qobiliyatiga ega bo‘ladi”. U maktabga tayyorlik komponentlari qatoriga aqliy, ijtimoiy va emotsiyonal komponentlarni kiritadi. Bu hamma ta’riflarni umumlashtirganda maktabga tayyorlik - bola organizmining shunday funksional yetilganlik darajasiki (organizmni jismoniy va ruhiy tizimlarining rivojlanishi), bunda bola ta’limning hamma talablarini bajara oladi.

Bola maktabga tayyor emasligining sabablarini 2 guruhga bo‘lish mumkin: organik (bolaning jismoniy va asab-ruhiy tizimidagi o‘zgarishlar) va tarbiyaviy (erta maktabgacha yoshdagi bolalarni tayyorlashda noeffektiv pedagogik yondoshuv).

Organizmni tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirida ishtirok etishda asosiy rolni markaziy asab tizimi bajaradi. Bosh miyaning funksional holatini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, olti va yetti yoshli bolalar ko‘p miqdordagi axborotni idrok etish va qayta ishslash xususiyatiga ega bo‘ladilar. Bolalar diqqat va e’tiborlarini ayrim ob’ektlarga qaratishlari va uzoq muddat ushlab turishlari mumkin, ammo bosh miyaning bu funksiyasi kichikroq yoshdagi bolalarnikidan unchalik farqlanmaydi. Ularda ixtiyoriy diqqat noturg‘un bo‘lib, qiziqroq narsalarga tez chalg‘iydi. Shu sababli bu yoshdagi bolalarga yangi materialni tushuntirishda faqat so‘zlar bilangina emas, balki yorqin va qiziqarli ko‘rsatma materiallardan foydalanish kerak. Olti va yetti yoshli bolalar uchun juda yuqorigi darajadagi emotsiyonal reaksiyalar va temperament xos.

Ma’lumki, o‘quv harakatlari bolalarning imkoniyatlari va harakatlariga asoslangan yuqori darajalari nazorat turini muntazam namoyon bo‘lishini taqozo etadi. Bolalarda e’tibor bilan amaliy mashqlarni bajarishlari ularning ijtimoiy motivlarining o‘ziga xos ko‘rinishidir. Zero, namunali va e’tiborga loyiq har qanday mehnatning samarasini bolalarga o‘zgalar tomonidan beriladigan maqtov va daldaga bo‘lgan ichki intilishidir.

Bu yoshdagi bolalarning intellektual nuqtai-nazardan muhim sifat o‘zgarishi undagi ichki aqliy harakat va operatsiyalarning ajralib turishi va ma’lum bir tus olish jarayonidir. Bunday xususiyatlar bolaning nafaqat bilish jarayoni, balki shaxsiy vazifalarni hal qilishida ham namoyon bo‘la boshlaydi. Shu ma’noda, bolalarda dastlab bilish jarayoni bilan bog‘liq ichki, shaxsiy sifatlar birmuncha keyinroq esa emotsiyonal-motivatsion jarayon paydo bo‘lishini kuzatish mumkin. Bunda bolada ramzlardan asta-sekin obrazlarga o‘tish jarayoni kuzatiladi. Obrazlar sifatida turli obrazlarni fikran yasash, qurish hisoblansa, ramzlar sifatida esa turli alomatlar tizimi (ramziy funktsiyalar va boshqalar) ular bilan opreatsiya va harakatlarni amalga oshirish, matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bu sohadagi muhim sifatlaridan biri, bu bolalar hayotida ijodkorlik jarayonining namoyon bo‘lishidir. Bolalardagi ijodiy qobiliyatlar konstruktorlik o‘yinlari, texnik va badiiy ijodkorlikda yaqqol ko‘zga ko‘rina boshlaydi. Bunday faoliyat jarayonida bola o‘zida namoyon bo‘layotgan qobiliyatning dastlabki layoqatlarini ko‘rsata boshlaydi. Tarbiyachi va pedagoglar, ota-onalar va kattalar tomonidan ayni paytda bolaning u yoki bu qobiliyatga bo‘lgan layoqatini o‘z vaqtida aniqlash, uni to‘g‘ri yo‘naltirish va muntazam mashg‘ulotlar uyushtirib borilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi va umumta’lim maktablarining endigina birinchi sinflarda tahsil olayotgan bolalarning o‘z-o‘ziga beradigan baholari ham turlicha, hattoki qarama-qarshi ko‘rinishda namoyon bo‘lishini kuzatdik. Bolalar bilan maxsus tarzda o‘tkazilgan turli shakldagi suhbatlarimiz, babs-munozaralarimiz bunday xulosa yaratishga asos bo‘ldi. Chunonchi, biz, dastlab, maktabgacha yoshdagi bolalarga “Bir bolachaning bir savat olmani ko‘tara olmayotganligi” haqidagi suratni izohlab berishlarini so‘radik, aksariyat bolalar savat og‘ir ekanligini sabab qilib ko‘rsatishgan bo‘lsa, ayni shu suratni kichik mакtab yoshidagi bolalarga namoyon qilishganimizda, ular bolaning kuch-quvvati etmayotganligini aytishdi.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, bolani maktabga tayyorligini psixologik komponentlarini affektiv-ehtiyoj, ixtiyoriylik, intellektual va nutq funksiyalari tashkil etadi. Shu sababli qo‘llaniladigan bolani maktabga tayyorligini o‘rganuvchi diagnostika usullari yuqorida ko‘rsatilgan hamma ruhiy sferalarni o‘z ichiga oladi. Ammo hamma tekshiruv usullari kamchiliklardan holi emas. Ular bolaning motivatsion tayyorligi haqida dalolat bermaydi, juda qisqa vaqt oralig‘ida bolaning imkoniyatlarini to‘liq o‘rganib bo‘lmaydi va boshqalar.

Maktabda ta’lim tarbiya ishlarini tashkil qilishda kichik mакtab yoshidagi bolalarning analitik-fiziologik xususiyatlari jismonoy kamolot darajasini hisobga olish muvaffaqiyat garovidir. Har bir insonning ichki dunyosi shunday shakillanganki, uni maqtov va rag‘batlantirishlar yangi xususiyatlar va qobiliyatlarini namayon etishda muhim ahamiyat kasb etdai. Ta’lim-tarbiya juda murakkab va mazmun jihatdan yangilanishga moyil bo‘lgan o‘quvchilar va o‘qituvchilar hayotidagi muhim jarayon hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Давидов В.В. Теория развивающего обучения / В. В. Давидов. – М.: Интор, 1996. - 544 с.
2. Гуткина Н.И. Психологическая готовность к школе. – М.: Проект, – 3-е изд., перераб. и доп., 2000. - 184 с.
3. Элконин Д.Б. К проблеме периодизации психологического развития в детском возрасте // Вопр. психол. 1971. № 4. С.6-20
4. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения. В 2-х т.- М.: Педагогика, 1983. – 772 с.
5. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari [3 jildlik saylanma]. Tuzuvchilar: U.Karimov, X.Hikmatullaev. j.1, Toshkent, A.Qodiriy, 1993, 304 b.